



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 330 sahifa,
22-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Matematika fanini o'qitishda kommunikativ va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar	10
<i>Esonturdiyev Mamatqobil Nurmamatovich</i>	
Geografik axborot tizimlari (GAT) texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodikasi	13
<i>Bahromova Muhayyo Imomqul qizi</i>	
Geografiya ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari	18
<i>Tuyg'unov Murodjon Salimqul o'g'li</i>	
Biologiyani o'qitishda belgili-ramziy ko'rgazmalilik vositalaridan foydalanishning o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishdagi roli	22
<i>Azimov I. T., Daminova F. A.</i>	
PISA 2025 doirasida raqamli ta'lim kompetensiyalarini baholashning innovatsion mexanizmlari	25
<i>Doniyorov Muxiddin Normamatovich, Ishanov Almat Adilxanovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy savodxonligini oshirishda zamonaviy pedagogik vositalarni qo'llash	28
<i>Abdunazarov Bobir Normurodovich</i>	
Raqamli ta'lim resurslari asosida kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish	32
<i>Jumayeva Ra'no To'ychi qizi</i>	
Oila va maktab integratsiyasining shaxs kamolotiga ta'siri	36
<i>Rasulova Dildora Shuhratovna, Raxmatova Zulxumor Alimovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati	40
<i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani shakllantirishda tabiiy fanning o'rni	43
<i>G'afforova Zarnigor Abdumo'min qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'limda o'qituvchi va ota-onalar ijtimoiy hamkorligini rivojlantirish	47
<i>Xalikova Zaxro Mirshadmanovna, Xolbo'tayev Muzaffar Odilovich, Bozorova Xadicha Javlon qizi</i>	
Nutqida kechikish kuzatiladigan bolalarda nutqni qo'l va barmoq motorikasini rivojlantiruvchi o'yinlar orqali shakllantirish	51
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Fotima Adizovna</i>	
Taym menejment asosida bo'lajak o'qituvchilarda liderlik fazilatlarini rivojlantirish	55
<i>Soliyeva Ruxsora Sharobiddin qizi</i>	
Sun'iy intellekt va NLP texnologiyalari asosida elektron ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish	58
<i>Otakishiyeva Gulshano Abdulaziz qizi</i>	
Pedagogik kvalimetriya asosida bo'lajak o'qituvchilarning diagnostik madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslari	61
<i>G'aniyeva Muattarxon Nodirbek qizi</i>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты	64
<i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	
Yosh erkin kurashchilarda chidamlilikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	69
<i>Ergashov Qaxramonjon Asqarovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy masalalar yechishga o'rgatish usullari	76
<i>G'iyosova Dilovar Orif qizi</i>	
Haykaltaroshlik fanining metodik qo'llanilishi	80
<i>Qodirov Bobirjon Botirjonovich</i>	
Ijtimoiy xavf ostidagi bolalarni qo'llab-quvvatlashning jahon tajribasi va psixologik-pedagogik asoslari	85
<i>Manzura Qosmuratova</i>	



Jahonda art-biznes klasterlarining ahamiyati va rivojlanish tuzilmasi.....	89
<i>A. S. Umarov</i>	
Автоматизация решения сложных математических задач графическим методом для углублённого изучения математики в школе	92
<i>Эргашев Серожиддин Султонмуродович, Маматов Исломбек Ильесович</i>	
Pedagogika darslarida raqamli va onlayn didaktik o'yinlardan foydalanish.....	97
<i>Qodirova Feruzaxon Abdiyaminovna</i>	
Sun'iy intellekt va tanqidiy fikrlashning kognitiv-konseptual komponenti va uni rivojlantirish metodikasi	102
<i>Sobirova Munavvarxon Qaxramonjon qizi</i>	
Media savodxonlik va axborot madaniyati fanida sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari	106
<i>Ermatov Sherzodbek Latipjonovich, Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich</i>	
Adabiy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv	111
<i>To'ychiyeva Mahfuza Umarkulovna, Islomova Shalola Ismoil qizi</i>	
Comparative Study of Passive Constructions in English and Their Translation Into Uzbek.....	117
<i>Elmirzayeva Maftuna Dusmurod qizi, Mustafoyeva Nigina Shuhrat qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish orqali pedagogik mas'uliyatni shakllantirishning dolzarb muammolari	122
<i>Botirova Odinaxon Abdumutalib qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik modeli va metodik asoslari	126
<i>Haytbayeva S. R.</i>	
Imkoniyati cheklangan bolalarni psixologik qo'llab-quvvatlash orqali intellektual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari.....	131
<i>Kadirova Nigora Saxibjanovna</i>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini dual ta'lim asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy asoslari.....	134
<i>Samiyeva Zuleyxa Uktamovna</i>	
Insonlar orasidagi munosabatlarda noverbal muloqotning komponentlarining ko'rinishlari	139
<i>Soliyev Farxodjon Sodikovich, Karimov Jahongirjon Murodjon o'g'li</i>	
Virtual texnologiyalar vositasida texnika fanlarini o'qitish mazmunini innovatsion rivojlantirish	145
<i>Yuldasheva Dilorom Husniddin qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida suzish mashg'ulotlarini tashkil etish texnologiyasi.....	150
<i>Toshpulatova Aziza Toyirovna</i>	
Harbiy xizmatchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslari	155
<i>Tursunov Shaxzod Ramazonovich, Mansurov Sardorbek Sirojiddin o'g'li</i>	
O'qituvchilar ruhiy salomatligini saqlashning amaliy strategiyalari	159
<i>Begmatov Raximkul Olimovich</i>	
Ona tili darslarida analitik faoliyatni tashkil etish imkoniyatlari	164
<i>Narziyeva Mastura Sunnatovna</i>	
Maktabgacha ta'limda Project-Based learning texnologiyasi asosida tarbiyalanuvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	168
<i>Kubayeva Mavluda, Po'latova Gullola Ravshan qizi</i>	
Talabalarda iqtisodiy savodxonlikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari	173
<i>Qo'chqorov Nodir Bozorovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini baholash jarayonida foydalaniladigan texnologiyalar va vositalar	178
<i>A'zamqulova Zilola Sunnat qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning didaktik asoslari.....	183
<i>Isaboyeva Dilyora Zokirjon qizi</i>	
Kimyo fanining tarixiy rivojlanishida metodologik yondashuvlar	187
<i>Begamov Shaxzod To'liqin o'g'li</i>	
Sport bilan shug'ullanishda qo'l va oyoq motorikalarini rivojlantirish mezonlari	190
<i>Imomov Asliddin Abdurazoqovich, Sattarov Qarshiboy Narqulovich</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	O'zbek va ingliz tillarida zamon kategoriyasining qiyosiy tahlili..... 194 <i>Xudoyberdiyeva Dilfuza Alisher qizi</i>	194
	Hayot faoliyati xavfsizligi fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligi va rejalashtirish faoliyati..... 198 <i>Maxmudov Baxtiyor Xayrullayevich</i>	198
	Dizartriyali bolalarda motorikani rivojlantirish – nutqni rivojlantirishning asosiy omili 202 <i>Mamatova Muzayyana Batirovna</i>	202
	Expression of Lexical Economy in English and Uzbek Through Stylistic Means 205 <i>Omonov Baxtiyor Uktamovich</i>	205
	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy qobiliyatni shakllantirish..... 208 <i>Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Xamzayeva Sunbula Jasurovna</i>	208
	Xushmuomalalik strategiyalarining ijtimoiy vazifalari..... 212 <i>Alieva Navruza Xabibullayevna, Azizova Sanobarxon Valijon qizi</i>	212
	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shaxslilik sifatlarining kasbiy rivojlanishdagi psixologik ahamiyati 216 <i>Dusmetova Maksuda Matnazarovna</i>	216
	Maktabgacha ta'lim jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning ilustrativ yondashuv asosida kreativ va variativ faoliyat olib borish usullari va yo'llari..... 221 <i>Egamberdiyeva Madina Sharif qizi</i>	221
	Pragmatic Functions in Neurolinguistic Communication 224 <i>Fayziyeva Parvina</i>	224
	Sahro gavhari: ruslar istilosigacha bo'lgan davrda Xiva me'morchiligi tarixi 227 <i>Islomjon Xoljigitovich Mirzakulov</i>	227
	Moslashuvning psixologik mexanizmlari: ta'lim muhiti sharoitida shaxsning adaptatsiyasi..... 235 <i>Jaynarova Sayyora Isoqul qizi, Nuraliyeva Nasiba</i>	235
	Onalik psixologiyasi va o'rganishning nazariy jihatlari..... 238 <i>Kasimova Xulkar Atabayevna</i>	238
	Spheres of Language Use..... 243 <i>Kumakbayeva Gulbanu Kuntuarovna</i>	243
	Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida kreativ tafakkurni rivojlantirishda nostandart topshiriqlar metodikasi..... 246 <i>Muxammadiyeva Dinora Tursunpulatovna</i>	246
	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari va didaktik tamoyillari..... 251 <i>N. Jurayev</i>	251
	Dunyo bolalari huquqlarini himoya qilish: global muammolar, tizimli kamchiliklar va tanqidiy tahlil 255 <i>Nargiza Ergasheva</i>	255
	Talabalarining dasturlashga oid agoritmik fikrlashini rivojlantirish orqali innovatsion faoliyatga tayyorlash usuli 259 <i>Orziqulova Barchinoy Ixtiyor qizi</i>	259
	Talabalarda o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining tuzilmasi va psixologik komponentlari (motivatsion, kognitiv, irodaviy, emotsional-regulyativ komponentlar) 264 <i>Otabekova Nargiza Avazbek qizi</i>	264
	O'zbek va ingliz tillaridagi metaforalarda til va madaniyat uyg'unligi 269 <i>Rasulova Munajat Akmaljonovna</i>	269
	Limitlar nazariyasini kompyuter imitatsion modellar vositasida o'qitish metodikasi..... 273 <i>Safarov Abbas Abdurasul o'g'li</i>	273
	Ijtimoiy hamkorlik – barkamol avlodni tarbiyalash poydevori..... 278 <i>Sharipova Gulruxsor Nurkabilovna</i>	278
	Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati..... 282 <i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>	282
	Badiiy gimnastika mashg'ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish 285 <i>Tuxtayeva Azizabonu Abdurasulovna</i>	285



Matematika fanini o'zlashtirishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining semiotik yondashuvini shakllantirish ...	289
<i>Xayrullayev Ismatulla Nurullayevich</i>	
Pedagogik qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish	293
<i>Xoliqova Inobatxon Bo'ri qizi</i>	
Umumta'lim maktabida elektron axborot-ta'lim resurslari.....	296
<i>Xolmurodov Shuxrat Okboevich, Norqobilov Hakimbek Nuriddin o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolaning kreativligini shakllantirishda innovatsion muhit	300
<i>Xonnazarova Gulasal Yusuf qizi</i>	
Ta'lim tizimida sinf rahbari faoliyatining joriy etilishining tarixiy asoslari va zamonaviy ko'rinishlari	303
<i>Xusenova Sadoqat Botirovna</i>	
Искусственный интеллект в методике преподавания русского языка: адаптивная обратная связь и развитие коммуникативной компетенции	308
<i>Джалилова Феруза Намазовна</i>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты.....	312
<i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	
Межкультурный диалог как инструмент воспитания гармоничной личности в школе	317
<i>Махмудхожаев Ориф Бахтиёрович</i>	
Психологические факторы успешности профессионального обучения студентов	319
<i>Рахимходжаева В. С.</i>	
Специфика восприятия окружающего мира в лирике Афанасия Фета	325
<i>Татьяна Викторовна Половинкина</i>	



OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK MODELI VA METODIK ASOSLARI

Haytbayeva S. R.

Xalqaro Nordik universiteti

“pedagogika” kafedrası dotsent v/b., p. f. f. d (PhD)

Annotatsiya: Maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini samarali tashkil etish masalasi yoritilgan. Mustaqil ta'limning mohiyati va zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rnini tahlil qilinib, uni tizimli tashkil etishga qaratilgan pedagogik model ishlab chiqilgan. Model maqsadli, mazmuniy, texnologik va baholovchi komponentlardan iborat bo'lib, mustaqil ta'limni rejalashtirish, tashkil etish va baholash jarayonlarini uyg'unlashtiradi. Tadqiqot natijalari asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, pedagogik model, self-directed learning, oliy ta'lim, talaba faolligi, o'z-o'zini boshqarish, refleksiya, metodik tavsiyalar.

Abstract: The article examines the issue of effectively organizing students' independent learning activities in higher education institutions. It analyzes the essence of independent learning and its role in the modern education system and develops a pedagogical model aimed at its systematic organization. The model consists of goal-oriented, content-based, technological, and assessment components that ensure the coordination of planning, implementation, and evaluation processes of independent learning. Based on the research findings, methodological recommendations have been developed.

Key words: independent learning, pedagogical model, higher education, student activity, self-management, reflection, methodological recommendations, self-directed learning.

Аннотация: В статье рассматривается вопрос эффективной организации самостоятельной учебной деятельности студентов в высших образовательных учреждениях. Анализируется сущность самостоятельного обучения и его роль в современной системе образования, а также разрабатывается педагогическая модель, направленная на его системную организацию. Модель включает целевой, содержательный, технологический и оценочный компоненты, обеспечивающие согласованность процессов планирования, организации и оценки самостоятельного обучения. На основе результатов исследования разработаны методические рекомендации.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, педагогическая модель, высшее образование, активность студентов, самоуправление, рефлексия, методические рекомендации, self-directed learning.

KIRISH

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida talabani mustaqil o'rganish faoliyatini rivojlantirish ta'lim sifatini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Axborot oqimining keskin ortishi, kasbiy faoliyatning murakkablashuvi hamda mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislariga bo'lgan talabning ortishi talabalarda mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Xalqaro ta'lim amaliyotida mustaqil ta'lim (self-directed learning) talabani o'z o'quv jarayonini mustaqil rejalashtirish, o'quv resurslarini tanlash hamda natijalarni baholashga asoslangan pedagogik jarayon sifatida talqin etiladi. Ushbu yondashuv o'rganuvchining o'z o'rganish ehtiyojlarini aniqlashi, maqsadlarni belgilashi va o'quv jarayonini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi (Knowles, 1975).

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish hamda talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son¹ Farmoni bilan tasdiqlangan “Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” da oliy ta'limni xalqaro standartlarga moslashtirish, talabalarning akademik mustaqilligini kengaytirish hamda ta'lim jarayonini natijaga yo'naltirish vazifalari belgilangan. Ushbu jarayonda kredit-

¹ <https://lex.uz/docs/-4545884>



modul tizimini joriy etish orqali mustaqil ta'lim ulushini oshirish va talabalarning o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, 637-son² "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda (2020) ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, talabalarning mustaqil fikrlashi va o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifalar qatoriga kiritilgan. Mazkur me'yoriy-huquqiy asoslar oliy ta'lim tizimida talaba markazli yondashuvni joriy etish hamda mustaqil ta'limni rivojlantirish uchun zarur sharoit yaratadi.

Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab hollarda mustaqil ta'lim faqat auditoriyadan tashqari topshiriqlar majmui sifatida tashkil etilib, uning pedagogik samaradorligi yetarli darajada ta'minlanmayapti. Natijada talabalarning o'z-o'zini boshqarish, reflektiv fikrlash hamda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari to'liq ishga solinmayapti.

Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni ilmiy asoslangan pedagogik model asosida tashkil etish dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi – oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni samarali tashkil etishning pedagogik modelini nazariy jihatdan asoslash hamda uni amaliyotga joriy etish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim tizimida talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur masala ilmiy adabiyotlarda turli nuqtayi nazardan yoritilib, unda mustaqil ta'lim talabani o'quv jarayonidagi faolligi, o'z-o'zini boshqarish qobiliyati hamda reflektiv faoliyati bilan uzviy bog'liq holda talqin etiladi. Mustaqil ta'lim tushunchasi xorijiy tadqiqotlarda self-directed learning konsepsiyasi doirasida keng o'rganilgan.

Xususan, D. R. Garrison mustaqil ta'limni o'z-o'zini boshqarish, motivatsiya va pedagogik yo'naltirishning o'zaro uyg'unligi asosida shakllanadigan kompleks jarayon sifatida izohlaydi (Garrison, 1997). Ushbu yondashuvda talabani mustaqilligi to'liq erkinlik emas, balki o'qituvchi tomonidan metodik jihatdan yo'naltirilgan faoliyat sifatida qaraladi.

Zamonaviy xorijiy tadqiqotlarda mustaqil ta'lim talabani metakognitiv faoliyati va refleksiyasi bilan chambarchas bog'liq holda tahlil qilinadi.

Mentz, Bunt va Havenga tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda self-directed learning talabani o'z o'quv faoliyatini rejalashtirish, strategiyalarni tanlash, natijalarni baholash va reflektiv tahlil qilish orqali amalga oshiriladigan tizimli jarayon sifatida asoslanadi (Mentz va boshq., 2024).

Shuningdek, S. Loeng mustaqil ta'limni o'rganuvchining o'z ta'lim jarayonini ongli ravishda boshqarishi va shaxsiy mas'uliyat asosida tashkil etishi bilan bog'liq pedagogik jarayon sifatida tavsiflaydi (Loeng, 2020).

Oliy ta'limda mustaqil ta'limni samarali tashkil etishda konstruktivistik yondashuv muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

J. Biggs va C. Tang tomonidan ishlab chiqilgan konstruktiv uyg'unlik (constructive alignment) konsepsiyasiga ko'ra, ta'lim samaradorligi o'quv natijalari, o'quv faoliyati va baholash mezonlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlik bilan belgilanadi (Biggs & Tang, 2011). Ushbu yondashuv mustaqil ta'limni tashkil etishda topshiriqlar mazmuni, o'quv natijalari va baholash mexanizmlarini yagona tizim sifatida loyihalash zarurligini ko'rsatadi.

Fry, Ketteridge va Marshall tomonidan oliy ta'lim metodikasiga oid tadqiqotlarda mustaqil ta'lim topshiriqlari talabani chuqur o'rganishini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerakligi ta'kidlanadi. Olimlarning fikricha, muammoli va tahliliy xarakterdagi topshiriqlar talabani yuqori darajadagi fikrlash faoliyatini rivojlantiradi hamda yuzaki o'zlashtirishning oldini oladi (Fry va boshq., 2015).

Xalqaro ilmiy qarashlarda mustaqil ta'lim uzluksiz ta'lim va shaxsiy rivojlanish bilan bog'liq holda ham talqin etiladi. ISSDL tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvda mustaqil ta'lim o'rganuvchi tomonidan ongli ravishda loyihalalanadigan va baholanadigan o'rganish jarayoni sifatida izohlanadi (ISSDL, 2020). UNESCO tomonidan ilgari surilgan zamonaviy ta'lim konsepsiyalarida esa mustaqil ta'lim talaba markazli yondashuvning asosiy elementi sifatida ko'rilib, u shaxsning umr bo'yi o'rganishga tayyorligini shakllantiruvchi muhim omil sifatida e'tirof etiladi (UNESCO, 2021; UNESCO).

Mahalliy pedagogik tadqiqotlarda ham mustaqil ta'lim masalasi keng yoritilgan bo'lib, u asosan innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va kompetensiyaviy yondashuv doirasida tahlil qilinadi.

M. G. Voinova pedagogik texnologiyalarni maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalalanadigan va natijasi nazorat qilinadigan pedagogik jarayon sifatida izohlaydi (Войнова, 2006). Ushbu qarash mustaqil ta'limni ham tizimli va boshqariladigan pedagogik faoliyat sifatida tashkil etish zarurligini asoslaydi.

2 <https://lex.uz/docs/-5013007>

N. A. Muslimov va hamkorlarining tadqiqotlarida mustaqil ta'limni innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etish zarurligi ta'kidlanib, bunda o'quv natijalariga yo'naltirilganlik, tizimlilik va amaliy yo'naltirilganlik tamoyillari ustuvor ahamiyat kasb etishi ko'rsatib o'tiladi (Muslimov va boshq., 2015; Muslimov va boshq., 2016). Ushbu yondashuv mustaqil ta'limni faqat topshiriqlar majmui emas, balki talabani kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizm sifatida ko'rish imkonini beradi.

R. J. Ishmuhamedov ta'lim samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalarning rolini asoslab, talabani mustaqil faoliyati va amaliy faoliyatga jalb etilishi o'quv jarayonining natijadorligini oshirishda muhim omil ekanini ta'kidlaydi (Ishmuhamedov, 2004).

Shuningdek, J. G'. Yo'ldoshev va S. Usmonov ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim jarayonida talabani faolligini oshirish va mustaqil fikrlashini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi (Yo'ldoshev & Usmonov, 2004).

Interfaol metodlarga oid tadqiqotlarda mustaqil ta'lim talabani faol ishtiroki, muloqoti va hamkorlikdagi faoliyati orqali rivojlanishi ta'kidlanadi.

Xususan, D. Ro'ziyeva va hamkorlari interfaol metodlar talabalarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishi va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishini asoslaydi (Ro'ziyeva va boshq., 2013).

Mustaqil ta'limda muammoli vaziyatlar va amaliy topshiriqlarning o'rni ham muhim hisoblanadi.

M. G. Savelyeva pedagogik keyslar talabalarning real vaziyatni tahlil qilish, qaror qabul qilish va muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantiruvchi samarali metod ekanini ta'kidlaydi (Савельева, 2013). Bu esa mustaqil ta'lim topshiriqlarini reproduktiv emas, balki tahliliy va amaliy yo'naltirilgan shaklda tashkil etish zarurligini ko'rsatadi.

M. Turdiyeva tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa talabalarda pedagogik tafakkurni shakllantirish jarayonida mustaqil tahlil qilish, refleksiya va qaror qabul qilish ko'nikmalarining ahamiyati asoslab beriladi (Turdiyeva, 2008). Ushbu yondashuv mustaqil ta'limni bo'lajak mutaxassisning kasbiy tafakkurini rivojlantiruvchi muhim pedagogik vosita sifatida baholash imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy tadqiqotlarda mustaqil ta'lim asosan self-directed learning, meta-kognitiv faoliyat, konstruktiv uyg'unlik va o'z-o'zini boshqarish nuqtayi nazaridan o'rganilgan bo'lsa, mahalliy tadqiqotlarda u innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va kompetensiyaviy yondashuv bilan bog'liq holda tahlil qilingan. Biroq har ikki yo'nalishdagi tadqiqotlarda mustaqil ta'limni oliy ta'lim jarayonida tizimli pedagogik model asosida tashkil etish, uning komponentlari, mexanizmlari va baholash tizimini integratsiyalashgan holda asoslash masalasi yetarli darajada yoritilmagan.

Shu nuqtayi nazardan, mustaqil ta'limni maqsad, mazmun, metodik yo'naltirish, monitoring va baholash komponentlarini o'z ichiga olgan yaxlit pedagogik model asosida tashkil etish zarurati yuzaga keladi. Mazkur maqola aynan ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini samarali tashkil etish zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tizimli model ishlab chiqishni talab etadi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, amaliyotda mustaqil ta'lim ko'pincha alohida topshiriqlar majmui sifatida tashkil etilib, uning maqsadi, mazmuni, tashkil etish mexanizmi va baholash tizimi o'rtasidagi uzviylik yetarli darajada ta'minlanmaydi. Shu sababli mazkur tadqiqotda mustaqil ta'limni yaxlit pedagogik jarayon sifatida tashkil etishga qaratilgan model ishlab chiqildi.

Taklif etilayotgan pedagogik model mustaqil ta'limni maqsadga yo'naltirilgan, tizimli va boshqariladigan jarayon sifatida tashkil etishga asoslanadi. Modelning asosiy g'oyasi talabani o'z-o'zini boshqarish, reflektiv fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali uning o'quv faoliyatini faollashtirishdan iborat. Mazkur model konstruktiv yondashuv hamda konstruktiv uyg'unlik konsepsiyasiga tayangan holda ishlab chiqilgan bo'lib, unda o'quv natijalari, ta'lim faoliyati va baholash jarayoni o'zaro uyg'un holda tashkil etiladi (Biggs & Tang, 2011).

Modelning tarkibiy tuzilmasi o'zaro bog'liq komponentlardan iborat bo'lib, ular mustaqil ta'lim jarayonining barcha jihatlarini qamrab oladi. Maqsadli komponentda talabalarda mustaqil o'rganish, o'z-o'zini boshqarish, refleksiya va muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish asosiy vazifa sifatida belgilanadi. Mazmuniy komponent esa mustaqil ta'lim topshiriqlarining mazmunini belgilab, ularning muammoli, tahliliy va amaliy yo'naltirilgan bo'lishini taqozo etadi. Bunda topshiriqlar talabani mustaqil izlanish faoliyatini rag'batlantirishi va real hayotiy vaziyatlar bilan bog'liq bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi (Ro'ziyeva va boshq., 2013; Savelyeva, 2013).

Texnologik komponent mustaqil ta'limni amalga oshirish shakl va metodlarini o'z ichiga olib, unda muammo asosida o'qitish, loyiha faoliyati, interfaol metodlar hamda raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish nazarda tuti-



ladi. Bu esa talabani o'quv jarayonidagi faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda ta'limni individuallashtirish imkonini beradi. Baholovchi komponent esa mustaqil ta'lim natijalarini aniqlash va tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, unda joriy nazorat, o'z-o'zini baholash, refleksiya va yakuniy baholash mexanizmlari uyg'un holda qo'llaniladi. Baholash jarayoni o'quv natijalari bilan mos ravishda tashkil etiladi va talabani rivojlanish dinamikasini aniqlashga xizmat qiladi.

Mazkur model bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan jarayon sifatida tashkil etiladi. Dastlab rejalashtirish bosqichida o'quv maqsadlari aniqlanadi va mustaqil ta'lim topshiriqlari ishlab chiqiladi. Keyingi bosqichda ushbu topshiriqlar talabalarga yetkazilib, ularni bajarish bo'yicha metodik ko'rsatmalar beriladi. Amalga oshirish bosqichida talaba mustaqil o'rganish faoliyatini olib boradi, o'qituvchi esa yo'naltiruvchi va maslahat beruvchi sifatida ishtirok etadi. Monitoring bosqichida o'qituvchi talabani faoliyatini kuzatadi, zarur hollarda tuzatishlar kiritadi. Yakuniy bosqichda esa o'quv natijalari baholanadi va refleksiya asosida xulosalar chiqariladi.

Modelning ishlash mexanizmi o'quv jarayonining barcha elementlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikka asoslanadi. Unda mustaqil ta'lim topshiriqlari o'quv natijalari bilan mos ravishda ishlab chiqiladi, o'qituvchi tomonidan metodik yo'naltirish ta'minlanadi, talabani faoliyati muntazam monitoring qilinadi va baholash natijalari asosida refleksiya amalga oshiriladi. Bu esa mustaqil ta'limni tasodifiy emas, balki boshqariladigan pedagogik jarayonga aylantiradi.

Taklif etilayotgan pedagogik modelning asosiy afzalligi shundaki, u mustaqil ta'limni alohida faoliyat turi sifatida emas, balki o'quv jarayonining ajralmas qismi sifatida ko'rib chiqadi. Model talabani o'z-o'zini boshqarish va reflektiv fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi, o'quv jarayonini individuallashtirish imkonini beradi hamda o'qituvchi va talaba o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, mazkur model innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi (Muslimov va boshq., 2015).

TAHLIL VA NATIJALAR

Taklif etilayotgan pedagogik modelni oliy ta'lim muassasalarida samarali joriy etish uchun mustaqil ta'lim jarayonini aniq rejalashtirish, metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish va tizimli monitoringni yo'lga qo'yish zarur. Metodik tavsiyalar mazkur modelni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini belgilashga qaratilgan bo'lib, unda o'qituvchi va talabani faoliyati o'zaro uyg'un holda tashkil etiladi.

Avvalo, mustaqil ta'limni joriy etishda o'quv fanining maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, o'quv natijalari aniq belgilanishi lozim. Har bir mustaqil ta'lim topshirig'i muayyan o'quv natijasiga xizmat qilishi va talabani mustaqil fikrlashini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Shu asosda topshiriqlar muammoli, tahliliy va amaliy xarakterda ishlab chiqiladi. Bunda keyslar, loyihalar, muammoli vaziyatlar va tadqiqot elementlariga ega topshiriqlardan foydalanish tavsiya etiladi (Савельева, 2013; Ro'ziyeva va boshq., 2013).

Mustaqil ta'limni samarali tashkil etishda o'qituvchining roli alohida ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi an'anaviy bilim beruvchi roldan voz kechib, o'quv jarayonini loyihalovchi, yo'naltiruvchi va maslahat beruvchi fasilitator sifatida faoliyat yuritishi zarur. U mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqadi, ularni bajarish bo'yicha aniq metodik ko'rsatmalar beradi, talabalarining faoliyatini monitoring qiladi hamda zarur hollarda individual yordam ko'rsatadi. Shuningdek, o'qituvchi baholash mezonlarini oldindan belgilashi va ularni talabalarga tushunarli tarzda yetkazishi muhim hisoblanadi (Muslimov va boshq., 2015).

Talabani faoliyati esa mustaqil o'rganish jarayonining markaziy elementi sifatida tashkil etiladi. Talaba o'z o'quv faoliyatini rejalashtiradi, topshiriqlarni mustaqil bajaradi, zarur axborotni izlaydi va tahlil qiladi hamda o'z faoliyatini baholash orqali refleksiya amalga oshiradi. Bu jarayonda talabani mas'uliyati, tashabbuskorligi va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari rivojlanadi. Talabalarini mustaqil ta'limga bosqichma-bosqich jalb etish, ularga dastlab ko'proq metodik yo'naltirish berish, keyinchalik esa mustaqillik darajasini oshirib borish maqsadga muvofiqdir (Garrison, 1997).

Mustaqil ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va raqamli vositalardan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, Learning Management System (LMS) platformalari, elektron portfoliolar, onlayn forumlar va test tizimlari talabalarining mustaqil faoliyatini tashkil etish va nazorat qilish imkonini beradi. Bu vositalar orqali topshiriqlarni taqsimlash, bajarilish jarayonini kuzatish hamda natijalarni baholash samarali amalga oshiriladi (Fry va boshq., 2015).

Baholash jarayoni mustaqil ta'limning ajralmas qismi bo'lib, u nafaqat yakuniy natijani, balki jarayonni ham qamrab olishi lozim. Shu sababli joriy nazorat, o'z-o'zini baholash va refleksiya elementlarini o'z ichiga olgan kompleks baholash tizimini joriy etish tavsiya etiladi. Baholash mezonlari o'quv natijalari bilan mos ravishda ishlab chiqilishi va talabani rivojlanish dinamikasini aniqlashga xizmat qilishi kerak (Biggs & Tang, 2011).

Shuningdek, mustaqil ta'limni tashkil etishda vaqtni to'g'ri rejalashtirish muhim omil hisoblanadi. Talabalar uchun mustaqil ta'lim topshiriqlarining hajmi va murakkabligi o'quv yuklamasiga mos ravishda belgilanib, ularni bajarish uchun yetarli vaqt ajratilishi zarur. Bu esa talabani ortiqcha yuklama ostida qolishining oldini oladi

va o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Taklif etilayotgan metodik tavsiyalarni amaliyotga joriy etish natijasida mustaqil ta'lim jarayoni tizimli tashkil etilib, talabalarning o'z-o'zini boshqarish, mustaqil fikrlash va reflektiv faoliyat ko'nikmalari rivojlanadi. Bu esa, o'z navbatida, ularning kasbiy tayyorgarligi va ta'lim sifatining oshishiga xizmat qiladi.

XULOSA

Mazkur tadqiqotda oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini samarali tashkil etish masalasi nazariy va metodik jihatdan tahlil qilindi. Adabiyotlar sharhi natijalari shuni ko'rsatdiki, mustaqil ta'lim zamonaviy ta'lim tizimida talaba markazli yondashuvning muhim elementi bo'lib, u talabaning o'z-o'zini boshqarish, reflektiv fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, amaliyotda mustaqil ta'lim ko'pincha tizimli yondashuv asosida tashkil etilmayotgani, uning pedagogik samaradorligi yetarli darajada ta'minlanmayotgani aniqlandi.

Tadqiqot davomida mustaqil ta'limni maqsadga yo'naltirilgan, tizimli va boshqariladigan pedagogik jarayon sifatida tashkil etishga qaratilgan model ishlab chiqildi. Mazkur model o'zaro bog'liq komponentlar – maqsadli, mazmuniy, texnologik va baholovchi qismlardan iborat bo'lib, mustaqil ta'limni rejalashtirish, tashkil etish, monitoring qilish va baholash jarayonlarini yaxlit tizimda amalga oshirish imkonini beradi. Model konstruktiv yondashuv va self-directed learning nazariyalariga asoslanib, o'quv natijalari, ta'lim faoliyati hamda baholash mezonlarining uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ishlab chiqilgan model asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqilib, unda mustaqil ta'limni joriy etish mexanizmlari, o'qituvchi va talabaning faoliyati hamda baholash tizimi aniq belgilab berildi. Ushbu tavsiyalar mustaqil ta'limni samarali tashkil etish, talabalarning o'quv jarayonidagi faolligini oshirish hamda ularning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mustaqil ta'limni tizimli pedagogik model asosida tashkil etish talabalarning o'z-o'zini boshqarish, reflektiv fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida, ularning kasbiy tayyorgarligi va ta'lim sifatining oshishiga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, unda mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariy asoslari tizimlashtirildi hamda uning pedagogik modeli ishlab chiqildi. Amaliy ahamiyati esa ishlab chiqilgan metodik tavsiyalarni oliy ta'lim muassasalarida qo'llash orqali ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish imkoniyati bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4545884>
3. Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University. 4th ed. – Maidenhead: Open University Press, 2011. – 389 p.
4. Fry H., Ketteridge S., Marshall S. A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education. 4th ed. – London: Routledge, 2015. – 504 p.
5. Garrison D.R. Self-directed learning: Toward a comprehensive model // Adult Education Quarterly. – 1997. – Vol. 48(1). – P. 18–33.
6. ISSDL. International Society for Self-Directed Learning Framework. – USA: ISSDL, 2020. – 45 p.
7. Loeng S. Self-directed learning: A core concept in adult education // Education Research International. – 2020. – 12 p.
8. Mentz E., Bunt B., Havenga M. Self-directed Learning for Higher Education. – Cape Town: AOSIS, 2024. – 312 p.
9. UNESCO. Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. – Paris: UNESCO Publishing, 2021. – 205 p.
10. UNESCO. Learner-centred Pedagogy and Lifelong Learning. – Paris: UNESCO Publishing. – 78 p.
11. Воинова М.Г. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. – Тошкент: Ўқитувчи, 2006. – 192 с.
12. Ишмухамедов Р.Ж. Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йўллари. – Тошкент: ТДПУ нашриёти, 2004. – 168 б.
13. Йўлдошев Ж.Ф., Усмонов С. Илғор педагогик технологиялар. – Тошкент: Ўқитувчи, 2004. – 180 б.
14. Муслимов Н.А. ва бошқ. Инновацион таълим технологиялари. – Тошкент: Фан ва технология, 2015. – 240 б.
15. Муслимов Н.А., Усмонбоева М., Мирсолиева М. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik. – Тошкент: Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, 2016. – 227 б.
16. Педагогика назарияси / М.Х. Тохтаходжаева таҳрири остида. – Тошкент: Ўқитувчи, 2010. – 320 б.
17. Рўзиева Д., Усмонбоева М., Ҳолиқова З. Интерфаол методлар. – Тошкент: Фан ва технология, 2013. – 160 б.
18. Савельева М.Г. Педагогические кейсы. – Ижевск: Удмуртский университет, 2013. – 150 с.
19. Турдиева М. Олий таълим муассасалари талабаларида педагогик тафаккурни шакллантириш. – Тошкент: Фан, 2008. – 156 б.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.